



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK USULLARI.

Sulaymonova Ozoda

Farg'ona davlat universiteti Maktabgacha ta'lim 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11551056>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2024 yil

Ma'qullandi: 29-may 2024 yil

Nashr qilindi: 10-iyun 2024 yil

KEY WORDS

*maktabgacha ta'lim, suhbat, nutq,
hikoya, muloqot, predmet.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada maktabgacha
yoshdagi bolalarning nutqini
rivojlantirishning pedagogik usullari haqida
fikir bildirilgan.*

Nutq - insonning faoliyatlaridan biri hisoblanadi. Nutq - orqali insonlar bir-biri bilan muloqot qiladilar. Nutq insonning bilimdonligi, aql-zakovati, axloqi, tarbiyasidan dalolat beradi. Bolalarning nutqi va so'z boyligini rivojlantirish, ona tilining boyliklarini o'zlashtirish vazifalardan biridir:

-shaxsni shakllantirishning asosiy elementlari, rivojlangan qadriyatlarni rivojlantirish:

-milliy madaniyat, aqliy, axloqiy, estetik bilan chambarchas bog'liq:

-rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni til o'qitish va o'qitishda ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Nutq bolaning chaqaloqligidan boshlab rivojlana boradi. Chaqaloq gugulashni boshlaydi, keyinchalik kattalarga taqlid qilgan holda so'zlarni, gaplarni qaytara boshlaydi. Bola kattalarga taqlid qilgan holda nutqi boyitiladi. Inson erta bolalikdan nutqni o'zlashtiradi va uni butun umri davomida yaxshilaydi: boyitadi lug'at, nafas olish, ovoz, intonatsiyalarni o'zlashtirish, erkin gap va matn tuzishni o'rganadi.

Bola o'z ona nutqini yaqin odamlardan, ota-onasidan, uni o'rab turgan nutqdan qabul qiladi. T. N. Ushakovaning fikriga ko'ra, bolaning nutqining rivojlanishi genetik jihatdan oldindan belgilangan dasturning ustun ta'siri ostida erta bosqichlarda yuzaga keladigan umumiy psixogenezning bir tomoni sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni, bolada nutq rivojlanishining asosi genlarda yotadi va o'z-o'zini rivojlantirish ayniqsa faoldir.

Uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan davr nutq funksiyasini shakllantirish va rivojlantirishda eng muhim hisoblanadi. Nutqni rivojlantirishning asosiy vazifalari - so'z boyligini boyitish va faollashtirish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, izchil nutqqa o'rgatish maktabgacha yosh davrida hal qilinishini inobatga oladigan bo'lsak, ijodiy ta'lim texnologiyalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Xususan, nutq o'stirish faollik markazini badiiy qo'llanmalarga va didaktik materiallarga boy tarzda jihozlashga e'tibor berish kerak.

Bola ulg'ayar ekan, unda so'zlashishga ehtiyoj paydo bo'ladi. U o'z ehtiyojlarini, istaklarini harakatlar bilan, keyin esa asta-sekinlik bilan bolalarda nutq shakllanadi. Quyidagi

jarayonlar sodir bo'ladi: bola o'z ota-onasini taniydi, eshitgan so'zlari va jumllarini asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Tilga kirgach uning lug'at boyligi oshadi. Oddiy so'zlar keyinchalik sodda gaplardan foydalanadi.

Bolalarda nutq o'stirishning pedagogik usullaridan biri badiiy adabiyotlardan foydalanishdir. Badiiy asarlarni yangi texnologiyalar vositasida bolalarga o'rgatishning samaradorligi yuqori. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish ko'p jihatdan quyidagilarni to'g'ri hal etishga bog'liq: nutqni rivojlantirishga doir didaktik materiallar tarkibiga ; ota-onalar, tarbiyachining ma'lum maqsadga qaratilgan nutqi; bolalarga o'qib yoki aytib beriladigan ertak, she'r, qo'shiqlar, hikoyalar muntazam kiritilishi; ta'limiy o'yinlarda bolalarning faol nutqiy muloqotda bo'lishini ta'minlash lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini suhbat, hikoya , qayta hikoya qilib berish, o'yinchoq , rasm va predmetlarga qarab bolalarni hikoya qilishga o'rgatish orqali nutqini o'stirish juda samarali usuldir.

Suhbat – ta'limning dialogik metodi bo'lib, savol-javob o'tkazish, o'z nuqtayi nazarini ifodalashni talab etadi. Suhbat bolalar narsa-hodisalar, voqealar to'g'risida ayrim bilim va tajribalarga ega bo'lgan holatda o'tkaziladi. Suhbatda ishtirok etish bolalar uchun foydali qator ko'nikma va malakalarni paydo qiladi: bir-birini tinglash, aytilganlarini to'ldirish, ularni takrorlamaslik, bildirilgan fikrlarni samimiy baholash va boshqalar. Suhbat fikrning aniq yo'nalganligini, diqqatni va o'z xulq-atvorini boshqara olishni talab etadi. U mantiqiy fikr yuritish aniq fikr bildirish, xulosa qilishga o'rgatadi. Suhbat orqali tarbiyachi bolalarda his-tuyg'ularni tarbiyalaydi, fikr yuritilayotgan voqea- hodisaga munosabatni tarkib toptiradi.

O'yinchoqlar bolalarning nutqiy faolligini uyg'otadi, lug'at boyligini oshiradi, ularda tahlil qilish, yaxlit holatga keltirish, umumlashtirish, taqqoslash, tavsiflash, diqqatni jamlash kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi. O'yinchoq bolalarda – ma'naviy-axloqiy tuyg'ularni (mehribonlik, avaylash, e'tiborlilik) shakllantiradi, atrof-muhitga ijobiy munosabatni uyg'otadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirishda ilg'or pedagogik metodlar va texnologiyalarni joriy etish, ulardan samarali foydalanib bolalarning nutqini rivojlantirish . Ularni atrofdagilar ota-onasi, tengdoshlari va boshqalar bilan erkin muloqotga kirishishini ta'minlash, o'z fikrini erkin bayon etishga o'rgatish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.-T.: «Fan»2006 yil, 298b.
2. Egamnazarova Sh. M. «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» Ilim ziyo T.: 2016y.
3. «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi. -T.: 2022 yil.
- 4.F.R.Qodirova. R.M Qodirova. “Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi”. T., “Istiqol”, 2006.
5. Babayeva D.R. “Nutq o'stirish metodikasi” T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma
- 6.Qodirova F.R. Katta guruh uchun nutq o'stirish bo'yicha mashg'ulot ishlanmalari, (metodik qo'llanma), Toshkent-2011
- 7.Boboyorova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda intyerfaol usullardan foydalanish. Maktabgacha ta'lim j., 2007. 6-son.